

MOBIL ILOVALAR VA VIRTUAL PLATFORMALARDA BADMINTON MASHG'ULOTLARINI REJALASHTIRISH VA MONITORING QILISH

Abdullayev Mehriddin Junaydulloyevich

*Buxoro davlat universiteti "Sport nazariyasi va metodikasi"
kafedrasini mudiri, professor.*

Istamova Diyora Firuzovna

Buxoro davlat universiteti magistranti.

Annotatsiya: Mazkur ilmiy tadqiqot mobil ilovalar va virtual platformalarning badminton mashg'ulotlarini rejalashtirish va monitoring qilishdagi imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan. Ushbu texnologiyalar orqali talabalarning jismoniy ko'rsatkichlari, texnik harakatlari va mashg'ulotga bo'lgan faolligi real vaqtda kuzatiladi. Video-analiz va interaktiv ilovalar yordamida o'quvchilar texnika va taktik ko'nikmalarni tezroq rivojlantiradi. Tadqiqot shuningdek, raqamli tizimlarning talabalar motivatsiyasini oshirish va sport mashg'ulotlariga qiziqishni kuchaytirishdagi rolini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Badminton, mobil ilovalar, virtual platforma, mashg'ulotlarni monitoring qilish, video-analiz.

Kirish.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida sport ta'limini samarali tashkil etish va jismoniy faollik ko'rsatkichlarini oshirish dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda. Badminton mashg'ulotlari nafaqat jismoniy rivojlanish, balki texnika va taktik ko'nikmalarni shakllantirish, shuningdek, talabalar motivatsiyasini rag'batlantirish uchun muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi mashg'ulotlar sifatini oshirish, ularni individual va guruh bo'yicha optimallashtirish hamda trening jarayonini ilmiy asosda monitoring qilish imkonini beradi.

Mobil ilovalar, virtual platformalar va video-analiz vositalari orqali talabalar harakatlarini real vaqtda kuzatish, texnik xatolarni aniqlash va individual rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish mumkin. Raqamli tizimlar mashg'ulotlarni rejalashtirish, samaradorligini baholash va talabalar faoliyatini statistika asosida tahlil qilish imkoniyatini taqdim etadi. Shu bilan birga, interaktiv va virtual platformalar sport jarayonining motivatsion jihatlarini oshiradi, talabalarni mashg'ulotlarga faol jalb qilish va sog'lom turmush tarzini rivojlantirishga yordam beradi. Shuning uchun, mobil ilovalar va virtual platformalarni badminton mashg'ulotlarida qo'llash metodikasini takomillashtirish zamonaviy pedagogik va sport psixologiyasi nuqtai nazaridan muhim ilmiy masala hisoblanadi.

Asosiy qism.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Oliy ta'lim muassasalarida badminton mashg'ulotlari jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish o'quv-tarbiya jarayonining

samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Raqamli vositalar qo‘llangan eksperimental guruh natijalari an’anaviy usulda mashg‘ulot o‘tgan talabalar natijalariga nisbatan yuqori bo‘lgani ilmiy jihatdan tasdiqlandi. Avvalo, texnik tayyorgarlik ko‘rsatkichlarida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Video-tahlil, sensor qurilmalar va sun‘iy intellekt asosidagi kuzatuv tizimlari harakatlarni aniq qayd etib, xatolarni real vaqt rejimida ko‘rsatgani sababli zarba aniqligi, reaksiya tezligi va oyoq texnikasi barqarorligi ancha oshdi. Bu esa individual xatolarni tez aniqlash va ularni samarali tuzatish imkonini berdi. Shuningdek, taktik fikrlash va o‘yin strategiyasi bo‘yicha ham ijobiy natijalar qayd etildi. O‘yin epizodlarining raqamli tahlili, kurtka traektoriyalarini o‘rganish va simulyatsiya orqali mashg‘ulotlar o‘quvchilarning o‘yin ichidagi qaror qabul qilish tezligini va to‘g‘ri joylashuv darajasini sezilarli yaxshiladi. Raqamli texnologiyalar mashg‘ulot jarayonini yanada qiziqarli va interaktiv qilgani sababli talabalarning motivatsiyasi, ishtiroki va o‘zo‘zini nazorat qilish faoliyati oshdi. Mobil ilovalar va reyting tizimlari orqali talabalar o‘z natijalarini kuzata olishlari ularning mashg‘ulotga bo‘lgan mas’uliyat va qiziqishini kuchaytirdi.

Yosh badmintonchilarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishda AKTning ahamiyati beqiyosdir. Ushbu texnologiyalar sport mashg‘ulotlarini ilmiy asosda tashkil qilish, individual yondashuvni joriy etish va sportchilarning qobiliyatlarini kompleks rivojlantirish imkoniyatini taqdim etadi. Shu sababli AKTni sport mashg‘ulotlariga keng joriy etish va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Badminton sport turini ommalashtirish, yosh sportchilarning ushbu sport turi bo‘yicha bilimlarini oshirish, boshlang‘ich tayyorlov bosqichida koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ommalashtirish va amaliyotga joriy qilish maqsadida “Badminton academy” deb nomlangan platforma yaratildi. Ushbu platformaning maqsadi badminton sport turining paydo bo‘lishi, shakllanishi, tarixiy genezesi, dunyo va O‘zbekistonda ushbu sport turining rivojlanishi haqidagi ma’lumotlarni berish bilan bir qatorda, foydalanuvchilar uchun yangiliklarni o‘z vaqtida, sifatli yetkazish hisoblanadi. “Badminton academy” deb nomlanga ushbu platformada sportchilar uchun eng so‘nggi va eng yangi ma’lumotlar bilan bir qatorda topshiriqlar, mashqlar jamlanmasi ham mavjud.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, raqamli platformalar individual va guruh bilan bajariladigan mashg‘ulotlarini optimallashtirish, trening jarayonini ilmiy asosda tahlil qilish hamda o‘quvchilarning texnika va taktik ko‘nikmalarini tezkor rivojlantirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, interaktiv ilovalar va virtual simulyatsiyalar talabalar motivatsiyasini oshiradi va sport mashg‘ulotlariga qiziqishni kuchaytiradi. Natijada, mobil ilovalar va virtual platformalarni joriy etish sport mashg‘ulotlarining sifatini yaxshilash, pedagogik jarayonni optimallashtirish va oliy ta’lim muassasalarida badminton bo‘yicha trening samaradorligini oshirishga ilmiy asos yaratadi. Bu esa zamonaviy sport ta’limi va raqamli texnologiyalarni integratsiyalashgan holda qo‘llashning strategik ahamiyatini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Валеева Г.В. Бадминтон: учебное пособие / Валеева Г.В.; Уфим. гос. нефтяной техн. ун-т. - Уфа, 2002. - 86 с.

2. Жбанков О.В. Информационная система оперативной оценки эффективности технических действий в бадминтоне / Жбанков О.В., Куприянов Д.Н., Ильин Ю.М. // Теория и практика физической культуры. - 2001. - №9.-С. 62-63.

3. Кудимова О.В. Методика оценки качества подач и нападающих ударов в бадминтоне / Кудимова О.В. // Спортивные игры в физическом воспитании и спорте: материалы междунар. науч.-практ. конф. (Смоленск, 24-26 дек. 2002 г.). -Смоленск, 2002. - С. 318-362.

4. М.М.Махаммадиев. Yosh badmintonchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish ko‘rsatkichlari, metod va vositalari Tamaddun nuri. Toshkent, 2024. 1-son. – В.151-154

5. Khamroyev Behruz Khalimovich Scientific and methodological bases of the use of national games in physical education Journal of multidisciplinary sciences and innovations. shokh library, 2025. 127-130 p.

6. Khamroyev Behruz Khalimovich Improvement And Optimization Of Modern Sports Games Of The Eastern Peoples International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education. 2024. 167-176 p.